

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12680459>

ONA TILI DARSLIKLARIDAGI YANGI METODLARNING NUTQ RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Bo'riyeva Shaxnozaxon Inat qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

M.A. Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish
metodikasi kafedrasida professori v.b. filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

***Annotatsiya:** Ona tili darslariga qo'yiladigan asosiy talab o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirish, yangi metodlarni qo'llash usullari, to'g'ri, ravon, ta'sirli va mazmundor so'zlash va yozishga o'rgatishdan iborat. Maqolada shu mazmundagi, ya'ni o'quvchilarning nutqiga qo'yiladigan talablar va maktabda o'qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan takliflar va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlari:** nutq, savodxonlik, nutq sharoiti, adabiy talaffuz, mazmun.*

***Аннотация:** Основным требованием к занятиям родным языком является повышение устной и письменной грамотности учащихся, научить их пользоваться новыми методами, правильно, бегло, эффективно и осмысленно говорить и писать. В данной статье даются предложения и рекомендации относительно требований к речи учащихся и той работы, которую должен выполнять учитель в школе.*

***Ключевые слова:** речь, грамотность, речевые условия, литературное произношение, содержание.*

Abstract: *The main requirement for native language classes is to improve students' oral and written literacy, to teach them to use new methods, to speak and write correctly, fluently, effectively and meaningfully. This article provides suggestions and recommendations regarding the requirements for student speech and the work that a teacher must do in school.*

Key words: *speech, literacy, speech conditions, literary pronunciation, content.*

Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog'idan boshlab qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rganishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o'ziga xos ta'lim tizimi yaratildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun" qabul qilindi. Ularda ta'limning boshqa sohalari qatori ona tili ta'limiga ham alohida o'rin ajratilgan. Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi.[3] O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyektivat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

Chiroyli so'zlashni, savodli, to'g'ri narsani, o'z fikrini savodli va aniq bayon etishni bilmagan o'quvchilar bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira olmadi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq va ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Nutq orqali odamzot o'zining ichki hissiyotlarini bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda to'la tuzilishi yoki shakllangan bo'lavermaydi. Inson nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab yetadi. Nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq odatdagi so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imlo-ishoralarga aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalar qo'shma gaplar deyarli qo'llanmaydi. Yozma nutq tuzish esa murakkabroq jarajon bo'lib, u o'quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir

soʻzni oʻz oʻrinida toʻgʻri qoʻllashni, imlo va tinish belgilariga rioya qilishni talab etadi. Avvalo shuni qayd qilish lozimki, maktabda oʻqitiladigan barcha oʻquv fanlari oʻquvchi nutqi ustida ishlashga qaratilgan boʻladi. Ona tili fani esa bular orasida eng asosiy va muhim sanaladi. Oʻquvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari, uning nutqi va tafakkuri ham muttasil oʻsib boradi. Ravon, ixcham, taʼsirli nutq tinglovchiga huzur bagʻishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri oʻz oʻquvchilarini ana shunday soʻzlashga oʻrgatishdir. [5]

Tajribadan maʼlumki, oʻquvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta oʻzlashtirmaydilar. Soʻzlarni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, oʻquvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, soʻzlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab boʻladi. Masalan, oʻquvchilarning ogʻzaki nutqida baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, masʼul, daryo kabi soʻzlarni boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, maʼsul, dayra tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi boʻyicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega boʻlganliklarini koʻrsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida “Oʻzbek tilining imlo qoidalari”dagi “Ayrim unlilar va undoshlar imlosi” yuzasidan tegishli nazariy maʼlumotlar mavzular oʻtilgach, quyidagicha topshiriq beriladi: Soʻzlarni oʻqing, xato yozilgan oʻrinlarni topib, oʻzbek tilning imlo qoidalariga mos ravishda ularni toʻgʻrilang va daftaringizga koʻchirib yozing. [7] *Bugalter, hayol, xayol, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kamyuter, maylis* va hokazo.

Toʻgʻri yozilishi: *buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis*. Kakografik yoʻnalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Oʻquvchi va oʻqituvchi oʻrtasidagi aloqa mustahkamlanadi;
- Oʻquvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;

- Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;
- Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Maktab o'qituvchilarining, birinchi navbatda, ona tili o'qituvchisining vazifasi o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarning oldini olib, nutqini sheva ta'siridan, har xil so'zlar ta'siridan tozalash va adabiy til meyorlariga amal qilgan holda so'zlashga o'rgatishdir.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- ❖ Nutqning nutq sharoitiga mosligi. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Masalan, so'zlovchi bitta, tinglovchi ko'p bo'lsa, so'zlovchining balan ovozda to'xtam (pauza)larga rioya qilib, fikrni izchil va bir-biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma'lum bir mavzuni sinfda, biror yig'inda ochib berishdagi nutqida o'z aksini topadi. Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishi hamdir.
- ❖ Nutqning mazmundorligi. O'quvchi nutqi nutq sharoitiga mos tushsa hamda uning o'zi bilgan va xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilsagina mazmunli bo'ladi. Aniq dalillar, o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritgan fikrlari o'zgaralar diqqatini o'ziga tortadi.
- ❖ Nutqning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytarilgan takror fikrlarga yo'l q'ymasligi kerak.
- ❖ Nutqning boy va rang-barang bo'lishi. Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va

qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, maqol va matallardan, ko'chma ma'noli so'zlardan, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy til vositalaridan keng va o'rinli foydalanishda namoyon bo'ladi.

- ❖ Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.
- ❖ Nutqning ohangdor, ta'sirli bo'lishi. Ohang o'quvchi nutqning ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. O'quvchi har bir she'riy yoki nasriy asarni ohangdorlikka amal qilgan holda, sintagmalarga rioya qilib, mantiqiy uuni to'g'ri qo'llab o'qishi zarur.

O'quvchilar nutqini o'stirishda quyidagi amaliy tadbirlar qo'llanadi:

- Adabiy talaffuzni har bir darsda o'rganiladigan qoidalarga bog'lab o'rgatish.
- Boshqa fanlarni o'qitishda ham nutq o'stirishga e'tibor berish.
- O'quvchi nutqidagi adabiy tilga xos bo'lmagan dalillarni tushuntira bilish.
- Fonetika o'qitishda aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan tovushlar talaffuziga e'tibor berish.
- Orfografik malakalarni mustahkamlashga oid darslar.
- O'quvchilarni turli tadbirlarda va yig'inlarda chiqib so'zlashga odatlantirish.
- She'riy va nasriy asarlardan parchalar yod oldirib borish. Maktabda yagona orfografiya va nutq rejimi maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasi oldiga o'quvchilarning savodxonligini oshirish, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishida faol ishtirok etish vazifasini qo'yadi.[4] Bunda savodxonlik va nutq madaniyatini o'stirishda yagona talab amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan usullar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni

yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni (Yangi tahrirda) 1995.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. .
3. M.Omilxonova. Maktabda ona tili sintaksisini o'rgatish. T.:O'qituvchi, 1991.
4. X.G'ulomova va boshq. 4-sinfda ona tili darslari. T.O'qituvchi, 1991.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qarori, Abduraxmonov va boshqalar G'. O'zbek tili grammatikasi.T.: 1999. 3-123 betlar.
6. Asqarova M. "O'zbek tili grammatikasining praktikumi"
7. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T.: 2000 y.
8. Ikromova R., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
9. Rahmatullaev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). T.: Universitet, 2006.
- 10.O'rinboev B., Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Samarqand-2006- yil., 57- 60 betlar
11. Maktab ona tili darsligi. R.Ikramova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, D.Shodmonqulova. 10-14 betlar Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.
- 12.Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlaridan foydalanish: Ped.fan. nom. ...dis. –Toshkent, 2016-yil